

**ANALYSIS OF ARTISTIC IMAGE TOOLS
АНАЛИЗ СРЕДСТВ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА
BADIY TASVIR VOSITALARI TAHLILI**

Erkinova Ruxsora Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Abduxakimovabibisora@gmail.com

+998941603439

Annotation: Literature is a part of our life, in the development of our consciousness, and in many other events and is the main criterion necessary for our life. Our young poets and writers should know such rare artistic image tools in their literature. This article talks about the characteristics of artistic image tools in our works.

Key words and phrases: Uzbek people, literature, art, poet, artistic image, literary studies, artistic tools.

Аннотация: Литература является частью нашей жизни, она является главным критерием развития нашего сознания и многих других явлений, необходимых для нашей жизни. Наши молодые поэты и писатели должны знать такие редкие средства художественного изображения в своей литературе. В данной статье рассказывается об особенностях средств художественного изображения в наших произведениях..

Ключевые слова и фразы: узбекский народ, литература, искусство, поэт, художественный образ, литературоведение, художественные средства.

Annotatsiya: Adabiyot bu hayotimizni bir bo'lagi ongimizni rivojlanishida ham va yana ko'plab voqeа hodisalarda va hayotimiz uchun kerakli bo'lgan asosiy mezon hisoblanadi.Yosh shoir va yozuvchilarimiz o'z adabiyotidagi bunday nodir badiiy tasvir vositalarini bilishi lozim.Ushbu maqolada asarlarimizda badiiy tasvir vositalarini o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z va iboralar: o'zbek xalq, adabiyoti, badiiylik, shoir, badiiy tasvir, adabiyotshunoslik, badiiy vositalar.

KIRISH

O'zbek xalqining boy va o'ziga xos sermahsul tasvir vositalari mavjud. Shundan kelib chiqib badiiy tasvirga taralib o'tadigan bo'lsak, badiiylikni o'ziga xos xususiyatlari bor bo'lib, badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stalistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Badiiy

adabiyot so‘z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi.Ya‘ni, ko‘p hollarda bitta vositaning ozi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Asar yoki sher yaratar ekanmiz badiiy tasvir vositalarisiz ularni tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham bu mavzuga tòxtalib òtishimiz kerak deb bildim. Hozirgi kunda inson miyasining bunga qoshimcha inson tomonidan yaratilgan ixtiro qilingan texnologiyalar ham rivojlanib bormoqda. Albatta har bir asarning negizida shoirning o‘z ichki dunyosi va hayotga öz qarashlarini singdiribgina asar yaratadi. Shu yerda shuni ham aytib òtish lozim deb bildim. Har bir asar yaratilar ekan uning asosiy negizi badiiy unsurlar va badiiy ifodalarsiz haqiqiy asar hisoblay olmaymiz.Bu vositalarisiz asar yaratolmaymiz. Asar yaratilishi mumkin, qaysiki ilmiy asarlar bòlishi mumkin.Chunki shoir asar yaratishdan oldin shunday maqsadlar yaratgan bo‘ladi.Birinchidan sher yoki asardagi sözlarni bir biriga ma’no jihatdan tògri kelishi, badiiy unsurlarni tògri qòllay olishi va shunga öxshash yana bir nechta madsadlar yaratib oladi.Shunday shoirlarimizdan biri bu Mertemir edi.U "Shudring" she’rida shunday badiiy tasvir vositalarini namoyon qilib bergen. Mana bu satrlarga e’tibor beraylik.

Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qiz uzunchoq
Kelinlar taqinchoğı
Uzuk kòzlarimi yo

Har kuni tongda sodir bòladigan oddiygian shudringni shu darajaga olib chiqib badiiy tasvir vositalaridan foydalanganki shudringni kelinlar taqinchoğiga yoki uzuk kòzlariga öxshatyapti. Hammamizga ma'lumki, kelinlar doimo yaltirab yaltirab yurishadi, doim qòllariga va qulqlarida kòzni qamashtiradigan taqinchoqlar taqib olishadi. Shuning uchun ham shoir bu chiroyli öxshatishlarni bir biriga boğlab nodir asar yaratgan.

Chor atrofiga sabablardan,
Jimir jimir kòzmunchoq.
Bøy bøy dirlabolarning,
Suzik kòzlarimi yo?

NATIJA

Mana bu satrlarda yana bir boshqa hech qulog'ingizga chalinmagan bir öziga hos tasvir yaratib ketgan. Qiz bola baloǵat yoshiga yetar ekan uning husni yanada ortib chiroyiga chiroyiga chiroy qoshilib boraveradi. Bizning shoir sinchkov bòlganligi uchun bu holatdan ham unumli foydalanib qolish maqsadida shudringni

yosh qizlarning shahlo kòzlariga òxshatgan, va buning natijasida shoir òz dunyoqarashini betakror tasvirlardan foydalangan holda tasvirlab biz o'qituvchilarga boshqacha ruh va a'lo kayfiyat tuxfa etgan.

Yòq bu giryon kòzlarning,
Yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam taǵin,
Yiglabdida chamasi.

XULOSA

Ona bu hayotimizda takrorlanmas, hech kim sizni òylamasada sizni har daqidada òylab turuvchi va sizda biror muammo bòladigan bolsa sizga bildirmasdan shu muammoni yechimi haqida òylaydigan eng yaqin va mehribon insoningiz. Shoir bu satrlar bilan barcha badiiy tasvir vositalari qartilgan sòzga ya'ni ONA sòziga tòxtalib qoladi va ertalab chiroyli bòlib turgan bir shudringni ona kòz yoshiga òxshatib katta ma'no tashiydi.

Barcha satrlarda nihoyatda mazmunli va bir birini takrorlamas bòlgan chiroyli badiiy tasvir vositalaridan foydalanim adabiyotimiz rivojiga va òquvchi kitobxonlar uchun ham katta yordam berib òzining sezilarli hissasini qoshib ketgan. Badiiy tasvir vositalari mavzusiga to'xtalar ekanmiz, biz mavjud vositalarning hammasini ko'rib chiqishni maqsad qilmaganmiz. Zero, bu vositalarning har biri alohida mashg'ulot mavzusi bo'lish uchun yetarli material beradi. Yuqorida mulohazalar mazkur mavzuga kirish vazifasini o'tasa kifoya. Siz endi adabiyotshunoslikka oid lug'atlar, badiiy til xususiyatlariga oid ishlar bilan tanishish, badiiy asarlari mutolaa qilish jarayonida til unsurlariga jiddiy e'tibor qilishingiz, biz to'xtalmagan yoki misollar keltirmagan vositalar mohiyatini mustaqil o'rganishingiz va o'zlashtirishingiz zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish”
2. <https://muegn.ru/uz/enciklopediya>
3. tafakkur.net
4. <http://www.hozir.org/>